


2022- yilning yanvar-iyunida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 17 222,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oyi bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	14 227,5	17 222,9	106,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 832,4	16 662,7	106,4
mahsulotlarga sof soliqlar	395,1	560,2	112,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 832,4	16 662,7	106,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 730,1	5 572,9	103,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 202,7	3 960,1	109,0
sanoat	2 128,6	2 677,6	108,6
qurilish	1 074,1	1 282,5	109,8
xizmatlar	5 899,6	7 129,7	107,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 125,3	1 479,3	117,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	789,6	943,5	113,7
boshqa xizmat tarmoqlari	3 984,7	4 706,9	103,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 847,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,4 % ni, sanoat tarmog'i 16,1 % ni, qurilish 7,7 % ni va xizmatlar sohasi 42,8 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,2	96,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2,8	3,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,2	33,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23,2	23,8
sanoat	15,4	16,1
qurilish	7,8	7,7
xizmatlar	42,6	42,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	8,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,7	5,7
boshqa xizmat tarmoqlari	28,8	28,2

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,4 %), sanoatda – 108,6 % (16,1 %), qurilishda – 109,8 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 107,4 % ni (42,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 117,2 % (8,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,7 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (28,2 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 2,3 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 5,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 115,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 114,0 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 70,0 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 71,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

71,6 %

2022- yil

70,0 %